

UMUMTA'LIM MAKTAB O'QUVCHILARIDA TAYANCH KOMPETENSIYALAR
ASOSIDA TADQIQOTCHILIK KO'NIKALARINI SHAKLLANTIRISH

To'rayeva Dilafuz

Pedagogika nazariyasi va tarixi yo'nalishi

1- bosqichi magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada uzluksiz ta'lim tizimida amaliy kompetensiyani shakllantirish metodikasi yoritilgan. Jumladan o'qitishni samarali tashkil etish, o'quvchilarda kompetensiyani shakllantirish uchun pedagoglardan talab qilinadigan chora tadbirlar bayon qilingan.

Kalif so'zlar: kompetensiya, integral mikrosxema (IMS), amaliy kompetensiya,

Abstract. The article describes the methodology for the formation of practical competence in the system of continuing education. In particular, the measures required from teachers for the effective organization of training, the formation of students' competence.

Key words: concept, integrated circuit (IMS), practical competence

Rivojlangan mamlakatlar tajribasida so'nggi yarim asr uzluksiz ta'limni takomillashtirish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish, ta'limda kreativlik, pragmatik yondashuv alohida o'rin tutadi. Shuningdek, YUNESKO tomonidan 2030 yilgacha belgilangan xalqaro ta'lim konsepsiyasida hayot davomida sifatli ta'lim olishga imkoniyat yaratish» dolzarb vazifa sifatida belgilandi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev "...yoshlarimiz mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz"⁹²[1] – deb alohida ta'kidlaganlar.

Bugungi kunda ta'lim sifati unda faoliyat olib borayotgan o'qituvchilarning qanday bilimga egaligi ya'ni, pedagoglarning kasbiy kompetentligiga bog'liqdir. So'ngi yillarda butun dunyoda mehnat bozoridagi talabning tez o'zgarishi, ish beruvchilarning faqatgina uning bilimi, ko'nikmasi va malakasigagina emas, balki uning shaxsiy sifatlariga ham e'tibor qarata boshlaganligi bilan belgilanadi.

⁹² Mirziyoyev SH.M. Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. T.: "O'zbekiston" NMIU, 2017. – 29 b.

Jumladan, o'qituvchilarning kasbiy ko'nikmalarini shakllantirishda kasbiy va zamonaviy pedagogik g'oyalar amalga oshirilmoqda. Shu bois, o'qituvchi o'quvchi uchun bilim olishning yagona manbai bo'lib qolishi kerak emas, balki u o'quvchining mustaqil ishlash jarayonining tashkilotchisi, maslahatchisi, o'quv jarayonining faol ishtirokchisi bo'lishi lozim. Zamon talablariga javob beradigan fidoiy izlanuvchan, yangilikka intiluvchan, tashabbuskor kasbiy bilimlar, ko'nikmalarga ega kadrlarni tayyorlash hozirgi dolzarb masalalardan hisoblanadi.

Uzluksiz ta'lim tizimida u maktabgacha ta'lim muassasasi bo'ladimi, umumta'lim maktablari yoki oliy ta'lim bo'ladimi, barcha ta'lim muassasalari yagona maqsad: bitiruvchilar kompetensiyasini shakllantirish, ta'lim yoki ishlab chiqarishning keyingi bosqichiga tez moslashuvchan kadr tayyorlash, olgan bilimlarini hayotda qiyinchiliksiz qo'llash kabi sifatlarga ega bo'lishni taqozo etmoqda. Bu esa, ta'lim muassasalarida yuqori malakali o'qituvchilarga ega bo'lish, ta'lim sohasidagi o'zgarishlar va uning sifatini oshirishda asosiy omil hisoblanadi. Shuni inobatga olib, ko'pchilik davlatlar bitiruvchilarning kasbiy kompetentligiga alohida e'tibor qaratmoqdalar. Sababi, bugungi zamonaviy ta'lim muassasasida har bir talabgorning shaxs ekanligini hisobga olib ijobiy ta'lim muhitni yaratishi, ularning bilim olishga bo'lgan ehtiyojlarini aniqlashi, undan tashqari o'quvchilarni analitik, ijodiy va tanqidiy fikrlashga o'rgatishi kerakligini hayotning o'zi taqozo etmoqda. Buning ustiga o'qitishni samarali tashkil etish, o'quvchilarda kompetensiyani shakllantirish uchun pedagoglardan yuksak kasbiy mahoratga ega bo'lishlari talab qilinmoqda. Shuning uchun ham, avvalombor maktab o'qituvchilarining kasbiy bilimlarini va amaliy ko'nikmalarini rivojlantirishning ilmiy asoslarini ishlab chiqish, sifatli ta'limga erishish uchun o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish sohasidagi malakalarini oshirish, kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish modellarini takomillashtirish maktab bitiruvchilariga qo'yiladigan davlat talablarini konkretlashtirish kabi yo'nalishlarda samarali ishlar olib borilmoqda.

Xususan, 2017 yil 6 aprelda Vazirlar Mahkamasining 187-sonli qarorida umumta'lim maktab bitiruvchilari uchun 6 ta: Kommunikativ kompetensiya, Axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi, O'zini o'zi rivojlantirish kompetensiyasi, Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi, Milliy va umummadaniy kompetensiya, Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish hamda foydalanish kompetensiyalari belgilangan. Mazkur tayanch kompetensiyalar shakllantirish uchun umumta'lim fanlari mazmuniga mos ravishda fanga oid umumiy kompetensiyalar belgilangan asosida amalga oshirilishi ko'zda tutilgan.

Ma'lumki ta'lim jarayoni doimo emas, u jamiyat va davlat taraqqiyotiga monand holda doimiy ravishda takomillashib boradi, unga qo'yilgan talablar ham o'zgaradi.

Tahlil va natijalar. Umumiy o'rta ta'lim tizimini mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlar, ilg'or xorijiy tajribalarga asoslangan holda tashkil etish, man'aviy barkamol va intellektual rivojlangan shaxsni tarbiyalash kabi masalalarni nazarga tutgan O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirining 2020-yil 5-martdagi 67-son buyrug'i ijrosini ta'minlash maqsadida ishlab chiqilgan – Milliy o'quv dasturi amaliyotga joriy etildi va uning amaldagi o'quv dasturidan farqli jihatlari: - fizika fanidan o'quv dasturida o'quvchilarga qo'yiladigan malaka talablari sinflar kesimida belgilangan; - o'quvchilarning nazariy olgan bilimlarini hayotda qo'llash, xalqaro baholash standartlariga mos keluvchi topshiriqlar bilan ishlash uchun kichik loyiha ishlariga alohida soatlar ajratilgan; - fanlararo uzviyligi ta'minlanilgan; - spiralsimon (oddiydan murakkabga) o'qitishga yo'naltirilgan⁹³. Mazkur o'quv dasturi ta'lim samaradorligining metodologik asosi bo'lgan o'quv muassasalarida beriladigan tizimli ta'limni mustaqil bilim olishga yaqinlashtirish, o'quvchilarning izlanuvchanligiga tayangan holda ularda ilm olish qobiliyatini rivojlantirish, ta'limga nisbatan tizimli nazariy va amaliy yondashuvlarni amalga oshirib borishni nazarda tutadi. Eng avvalo, ta'lim sohasiga taqdim qilinayotgan mazkur hujjatning g'oyasida quyidagi talablar aks etgan, birinchidan, o'quv dasturida berilayotgan o'quv loyiha, o'quv amaliy mashg'ulot tavsifidagi va o'quvtadqiqot ishlarining qo'yilishida o'quvchining yoshi va ularning psixologik xususiyatlarini inobatga olinganligi, ikkinchidan, o'quv-loyiha, o'quv amaliy mashg'ulot va o'quv-tadqiqot ishlarining qo'yilishi darsda o'tilayotgan mavzular bilan uzviyligi, uchinchidan, o'quvchilar tomonidan loyiha va o'quv-tadqiqot ishlari bajarilishi ta'limda sifatli (intellektual mahsulot, kompetensiyalarini egallash) natijalari bilan kafolatlanishi lozimligi uqtirilgan. O'quv loyiha yoki o'quv-tadqiqot ishlarining bajarilish jarayoni o'qituvchi va o'quvchi faoliyatining o'zaro bog'liqligi ta'minlangan tartibli va mantiqiy ketma-ketligi, o'qitish jarayonining bosh vazifalaridan bo'lgan – ta'limning tarbiyaviy va rivojlantiruvchi funksiyalariga amal qilishni ta'minlaydi. Fanni tadqiqot sifatida o'rgatish o'quvchilar o'quv tadqiqotdagi ilmiy dalillarni va natijalarni taqdim etish bilan cheklanib qolmasdan, ular kundalik hayotida jamiyat va atrof muhit bilan bog'liq muammolarga o'z fikrini bildirish; kuzatishlar asosida dalillarni to'plash va ulardan foydalanishda faol ishtirok etish; ilmiy bilimlarga asoslanib tushuntira

⁹³ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori "Umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida". O'zR qonun hujjatlar to'plami, 2017 y., 14-son, 230 modda.

olish kabi ko'nikmalarga ham ega bo'lishi lozim. Tadqiqot orqali ilm fanlarini o'qitish va o'rgatishning qanday xususiyatlari mavjud? – degan savolga didaktik nuqtai nazardan qaralsa tadqiqotga asoslangan ta'lim javobgarlik darajasi tavsiflash mumkin. Bunda o'quvchi o'z oldiga muammo qo'yib tadqiqot g'oyasini shakllantiradi va o'quv-tadqiqot ustida ish olib boradi, muammoga ma'lumot yig'adi (o'quvchi boshqaradigan tadqiqot). O'qituvchi tomonidan o'quvchini tadqiqotga jalb etilganlik darajasi (o'qituvchi boshqaradigan tadqiqot, ta'limiy natija) bilan taqqoslanadi. Tadqiqotga asoslangan o'qitishning asosiy maqsadi, o'quvchilarga fundamental ilmiy tushunchalar va nazariyalarni o'rgatish, shuningdek, o'quv tadqiqotlarni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun zarur bo'lgan o'quv faoliyat va munosabatlarni rivojlantirishdan iboratdir. O'quvchilarda o'quv amaliy va ilmiy xabardorlik kompetensiyalarini shakllantirishda o'quv-loyiha, o'quv-tadqiqot va o'quv amaliy mashg'ulotlar muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

Mazkur dastur asosida dastlabki umumta'lim muassasalari uchun – Tibbiy fanlar (1-sinf o'quvchilari uchun) yaratilgan darslikning barcha boblarida bolalarning yoshi va ularning psixologik xususiyatlarini inobatga olinib, masalan, 8-bobda, ya'ni Issiqlik, Yorug'lik va Tovush mavzulariga oid o'quv materiallari tanlanilgan. Shuningdek, har bir mavzuga oid kichik tadqiqot ishi yoki kichik o'quvloyiha ishi darslikda o'z aksini topgan. Darslik mazmunida o'quv jarayonida o'quvchi tomonidan o'zlashtirilishi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma, munosabat va qadriyatlar hamda kompetensiyalarning shakllanishi nazarda tutilgan.

Xulosa va takliflar. Pedagogning ta'lim jarayoni o'quv loyiha yoki o'quv-tadqiqot ishlarini tashkil etish orqali fan asoslarni o'rganishga alohida urg'u berishi hamda o'quv mashg'ulotlarda zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan samarali foydalanishi, muammoni qo'yish asosida o'quvchilarni muammoni hal etishga dalillarni qidirishga yo'naltirishi va olingan ma'lumotlarni qayta ishlashi uchun zarur bo'lgan elementlarni kiritilishi o'quvchilarda fanga oid bo'lgan bilimlarni o'zlashtirishga, ko'nikma va kompetensiyalarni shakllanishiga imkon beradi. Xulosa o'rnida shuni ta'kidlab aytish joizki, zamonoviy ta'lim berishda o'quvchilarda shaxsiy intellektual – ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishning eng maqbul yo'llaridan biri, ularni o'quvloyiha hamda o'quv-tadqiqot faoliyat bilan shug'ullanishlarini tashkil etishdan iborat. Shuning uchun ham bu faoliyat ta'lim jarayonining muhim ajralmas qismi hisoblanadi.

ADABIYOTLAR RO`YXATI:

1. Mirziyoyev SH.M. Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. T.: "O'zbekiston" NMIU, 2017. – 29 b.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori "Umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida". O'zR qonun hujjatlar to'plami, 2017 y., 14-son, 230 modda
3. Razumovskiy V.G. O'quvchilarda ijodiy qobiliyatlarni o'stirish. - Toshkent: «O'qituvchi», 1978. 286-b.
4. Savenkov A.I. Issledovatel'skoye obucheniye i proyektirovaniye v sovremennom obrazovanii. // Issledovatel'skaya rabota shkolnikov. -M.: 2004. №1. -S. 22 – 32.
5. Leontovich A.V. Ob osnovnix ponyatiyax konsepsii razvitiya issledovatel'skiy i proyektnoy deyatelnosti uchashixsya. // Issledovatel'skaya rabota shkolnikov. 2003. №4
5. Qorayev, S. B. (2020). Professional ta'limda o'quv amaliyotlarini tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlari. *Academic research in educational sciences*, 1(3).
6. Shagiyeva, N. (2020). The role of information technologies to teach Russian language. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences*, 8(7).
7. Eshmanova, N. N., & Matyakubova, M. B. (2019). Tarbiyachilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish. Ta'limdagi innovatsiyalar va islohotlar kontekstida zamonaviy klaster tizimi: muammolar, yondashuvlar va istiqbollar, 1, 33-34.
8. Shoqosim o'g'li, A. U., Rahimovna, T. O. R., Mamasiddiqovna, A. N., Mamasoliyevich, T. R., & Roxataliyevna, A. N. (2022). Technologies For Improving The Quality Of Educational Results Of Schoolchildren By Developing A Personalized Model Of Teaching Mathematics Through Interactive Stories. *Journal of Positive School Psychology*, 6(11), 1354-1365.
9. Shoqosim o'g'li, A. U. (2022). The importance of didactic games in teaching mathematics in secondary schools. *Web of Scientist: International Scientific Research Journal*, 3(6), 1566-1570.
10. Abdurahmanov, U. S. (2023). Application of Modern Information Technologies in Teaching Mathematics in General Education Schools. *INTERNATIONAL JOURNAL OF INCLUSIVE AND SUSTAINABLE EDUCATION*, 2(3), 20-24.
11. Abduraxmonov, U. S., & No'monova, D. (2023). UMUMTA'LIM MAKTABLARI MATEMATIKA DARSLARIDA ZAMONAVIY DIDAKTIK

VOSITALARINING QO 'LLANILISHI. *Новости образования: исследование в XXI веке*, 1(9), 160-165.

12. Abdurakhmonovich, S. A. (2022). Technology of Critical Thinking in Russian Language and Literature Lessons in 5-6 Grades. *Middle European Scientific Bulletin*, 22, 64-68.

13. Abdurakhmonovich, S. A. (2022). Informative-Target Analysis. *Middle European Scientific Bulletin*, 22, 69-71.

14. Isroilova, G., & Abdurahimov, S. (2021, December). The socio-political activity of the youth of Uzbekistan. In *International conference on multidisciplinary research and innovative technologies* (Vol. 2, pp. 231-235).

15. Абдурахимов, Ш. А., Файзрахманова, А. А., & Шанина, Ю. А. (2020). ПУТИ ФОРМИРОВАНИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ УЧИТЕЛЯ-СЛОВЕСНИКА. In *Система непрерывного филологического образования: школа–колледж–вуз. Современные подходы к преподаванию дисциплин филологического цикла в условиях полилингвального образования* (pp. 2-8).

16. Абдурахимов, Ш. А. (2022, December). АНАЛИЗ ВИДОВ ЛЕКЦИЙ И ТЕХНОЛОГИЙ ОРГАНИЗАЦИИ НА ЭТАПАХ ОБУЧЕНИЯ. In *E Conference Zone* (pp. 34-41).

17. Sh, A. (2022). ISSUES OF FORMATION OF THE CENTER FOR MASTERING FOREIGN EDUCATIONAL PROGRAMS THAT FORM CIVIL EDUCATION IN STUDENTS IN THE SYSTEM OF PRIMARY EDUCATION IN UZBEKISTAN. *International Journal of Early Childhood Special Education*, 14(7).

18. Sh, A. (2022). SOCIAL ORIENTATION AND INTEGRITY OF EDUCATION. *INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429*, 11(09), 234-237.

19. Shokosim, A. (2022). THE ROLE OF THE FAMILY IN RAISING A HEALTHY GENERATION. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 10(12), 1113-1116.

20. Shokosim, A. (2022). PSYCHOLOGY OF FAMILY AND FAMILY RELATIONS. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 10(12), 1284-1287.

21. Абдурахманов, У., Тошматова, О., & Мелиева, Х. (2022). Umumta'lim maktablarida matematika fanini o'qitishning zamonaviy didaktik vositalari va muammoli ta'lim texnologiyasi. *Общество и инновации*, 3(3/S), 231-238.

22. Sh, A. U. (2022). The main approaches to the formation of the control action in younger schoolchildren in the process of teaching mathematics. *INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH* ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429, 11(11), 142-150.

23. Shoqosim o'g'li, A. U., Xafizaliyevna, M. X., & To'lqinjon, G. O. (2022). MODERN DIDACTIC MEANS OF TEACHING MATHEMATICS IN SECONDARY SCHOOLS AND PROBLEM EDUCATIONAL TECHNOLOGY. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 10(4), 460-467.

24. Абдурахмонов, У. Ш. (2022, December). О ПОСТАНОВКЕ И ИССЛЕДОВАНИЮ ОДНОЙ КРАЕВОЙ ЗАДАЧИ ДЛЯ УРАВНЕНИЯ ТРЕТЬЕГО ПОРЯДКА ПАРАБОЛО-ГИПЕРБОЛИЧЕСКОГО ТИПА В ТРЕУГОЛЬНОЙ ОБЛАСТИ С ТРЕМЯ ЛИНИЯМИ ИЗМЕНЕНИЯ ТИПА. In *E Conference Zone* (pp. 118-121).

25. Абдурахмонов, У. Ш. (2022). О КРАЕВОЙ ЗАДАЧЕ ДЛЯ УРАВНЕНИЯ ТРЕТЬЕГО ПОРЯДКА ПАРАБОЛО-ГИПЕРБОЛИЧЕСКОГО ТИПА В ТРЕУГОЛЬНОЙ ОБЛАСТИ. *Conferencea*, 202-206.

26. Abdurahmonov, U. (2022). FUNKSIYA HOSILASI GEOMETRIK VA MEKANIК МА'NOLARI. *Журнал интегрированного образования и исследований*, 1(6), 135-138.

27. Abdurahmonov, U. (2022). EKSTREMAL MASALALARNI YECHISHDA TENGSIZLIKLAR USULIDAN FOYDALANISH. *Eurasian Journal of Academic Research*, 2(12), 1239-1242.